

## BAXTDAN OMADI CHOPGAN (Venger xalq ertaklari)

Bir yo bo‘lgan ekan, yo bo‘lmagan ekan, yetmish yetti mamlakatning narigi yog‘ida mislsiz katta dengizga yetay-yetay degan joyda bir qirol o‘tgan ekan. Uning Yanko degan o‘g‘li bo‘lgan ekan.

Qirol o‘g‘lini uylantirmoqchi bo‘libdi. Lekin kutilmaganda musibat yuz beribdi, nima bo‘libdi-yu, qo‘shni qirol bunisini allaqanday ish bilan xafa qilib qo‘yibdi, unga qarshi qo‘shin tortmasa bo‘lmaydigan bo‘lib qolibdi. Endi qirolning ko‘ngliga to‘y ham sig‘may qo‘yibdi. U juda katta qo‘shin to‘plabdi va jang qilgani ketibdi. O‘g‘liga esa taxt-u sultanatga qarab turishni topshirib, to urushdan qaytib kelmagunimcha uylanish to‘g‘risida xayolingga ham keltirma, deb qattiq tayinlabdi.

Shunday qilib, qirol urushga ketibdi, Yanko uyda qolib, qo‘lidan kelganicha sultanatni boshqara boshlabdi. Yillar bir-birini quvlashib vaqt o‘tib borar, otadan bo‘lsa hamon darak yo‘q ekan — qo‘shni qirol bilan jang cho‘zilib ketibdi.

«Bo‘ldi, ortiq kutishga toqatim qolmadı, — deb shartta kesibdi qirolning o‘g‘li. — Bunaqada umrimning oxirigacha so‘qqabosh bo‘lib yuradiganga o‘xshayman, kim biladi, otam urushdan qachon qaytib keladi». Shundan so‘ng u kelin topgani yo‘lga chiqibdi. U o‘zining kim va qanday ekanini, allaqanday sayoq va bezot bir odam emasligini musofir yurtidagilarga ko‘z-ko‘z qilib qo‘yish niyatida katta qo‘shin ham olib olibdi. Biroq sultanatlari chegarasini kesib o‘tar-o‘tmas ular tomon kelayotgan — to‘g‘risini aytsak, oyog‘ini qo‘liga olib yugurayotgan — otasi qironga duch kelishibdi: otasining qo‘shini tormor keltirilib, o‘zi zo‘rg‘a jon saqlab qolgan ekan.

O‘g‘lining peshvoz chiqqanini, hammadan ham qo‘shin boshlab kelayotganini ko‘rib qirol suyunib ketibdi. U, o‘g‘lim mag‘lubiyatga uchraganimdan xabar topgan-u, yordamga shoshilyapti, deb o‘ylagan ekan-da! Biroq o‘g‘lining bunday gaplar yetti uxlab tushiga kirmaganini, bor-yo‘g‘i o‘ziga qayliq izlab chiqqanini bilgandan keyin uning shunaqangi fig‘oni chiqibdiki, asti qo‘yaverasiz.

- To qaytib kelmagunimcha sabr qilib tur demaganmidim?! — qichqiribdi qirol. — Buy- rug‘imga bo‘ysunmas ekansan, mening senday o‘g‘lim yo‘q! To‘rt tomoning qibla — ko‘zimdan yo‘qol! Senga bitta ham askar bermayman, itvachcha!

O‘g‘il otasiga yalinib-yolvora boshlabdi, tushuntirishga urinibdi: axir qachongacha so‘qqabosh bo‘lib yuraman, el-yurt, yor-do‘stlarim oldida nima degan odam bo‘laman, desa ham bo‘lmabdi, qirol uning gaplarini eshitishni ham xohlamabdi. Undan qo‘shinni ham olib qo‘yibdi. Faqat bir saroy mirshikorigina shahzodaga sodiq qolibdi, hatto qirolning ham buyrug‘iga bo‘ysunmabdi.

- Ulug‘ shohim, hayotim sizning qo‘lingizda, ammo men shahzodamiz Yankoning jonini xatarga qo‘ymayman.

Xullas, o‘g‘li bilan chiqisholmay, g‘azablangan ko‘yi uyiga ravona bo‘libdi, shahzoda esa mirshikori bilan musofir yurtlariga yo‘l olibdi. Otasining oq yo‘l tilab, ikki og‘izgina duysi fotiha qilmaganidan Yanko ichidan qattiq o‘kinib kuyinibdi, lekin biror hafta o‘tgach, hammasi esidan chiqib ketibdi. Bunga hayron qolib o‘tirmang! Shungacha ular tog‘lar va vodiylar, o‘rmon va dalalar oshib yo‘l yurib kelishayotgan bo‘lsa, yettinchi kun deganda Oltin sultanatning oltin qasriga yetib kelishgan ekan. U yerda yetti iqlimda timsoli yo‘q Oltin gulni ko‘rishibdi, gul shunchalik yorqin va charaqlagan ekanki, quyoshga tik qarasangiz ham bunga qarolmas ekansiz. Esimdan chiqmay turib aytib qo‘yay: oltin qasrda Oltin sultanatning qiroli yasharkan, Oltin gul degani aslida bog‘dagi gul emas, qirolning sohibjamol qizi ekan. Yanko qasrga kirib kelganida, malika qasr derazasidan ko‘chani tomosha qilib o‘tirgan ekan.

«Bu suvoriy yigit hoynahoy menga kelgan, — deb o'ylabdi qiz o'zicha — agar rostdan ham shunday bo'lsa, men u bilan ketaman».

Oltin gul chindanam sohibjamol ekan, lekin Yanko ham undan qolishmas ekan — husn desa husn, aql desa aql, qaddi-qomat desa qaddi-qomat — hammasidan bor ekan, ko'rgan odam tomosha qilib to'ymas ekan.

Yanko saroy zinasidan ko'tarila boshlabdi. To'g'ri bostirib kirishdan istihola qilib, avval qironga o'zining kim va qayerdan kelayotganini, dilidagi muddaolarini ochiq-oydin to'kib solibdi. Yankoning ochiqko'ngilligi qironga yoqibdi.

- Xo'sh, o'g'lim, aftidan durust odamga o'xshaysan, ochiqqina ekansan. Men senga qizimni bajonidil beraman, bir umr qo'sha qarib yuringlar. Lekin hamma gap sening qizimga yoqish-yoqmasligingda.

Qirog Oltin gulni chaqirtiribdi. U tortinib-netib o'tirmabdi, shartta javobini aytib qo'ya qolibdi:

- Roziman, unga jon-jon deb xotin bo'lishga tayyorman, chunki uning meni yaxshi ko'rib qolgani ko'zidan shundoq bilinib turibdi.

Darhol rohibni chaqirib kelishibdi, yoshlarni nikohdan o'tkazishibdi, yetti kecha, yetti kunduz to'y-tomosha qilishibdi, asal-pivolar ariq bo'lib oqibdi.

Ulug' mehmonorchilik tugagandan keyin olti quling o'rgulsin gijinglagan bedovni olmos bilan bezatilgan izvoshga qo'shishibdi va ikki yoshni Yankoning yurtiga olib jo'nashibdi. O'sha kuni kechqurunoq chegaraga yetib kelishibdi va bir karvonsaroyda tunab qolishibdi. Yoshlar darhol uxlagini kirib ketishibdi, shahzodaning mirshikori esa ko'z-quloq bo'lib turgani hovlida qolibdi, xo'jasib bilan uning yosh qaylig'ini qo'riqlashga qaror qilibdi. Yarim tunda mirshikor karvonsaroy tomiga uchta qarg'aning uchib kelib, o'zaro gaplashayotganlarini eshitib qolibdi.

- Oh dugonajonlar, — debdi qarg'alardan biri, — mana bu ikki yoshga achinib ketayapman. Shunday go'zal, suxsurday kelin-kuyov o'n gulidan bir guli ochilmay so'ladi!

- Ha, bo'imasam-chi, yetgan ajaldan qochib qutulib bo'larkanmi; axir ertaga aravalari ostidagi oltin ko'prik sinib tushadi! — debdi ikkinchisi.

- Shahzodaning otasi o'lgudek ichiqora odam ekan! — debdi uchinchi qarg'a. — Ko'prikni arralashni o'sha buyurdi-da. Qag'-qag', hay attang!.. Agar shu gaplarimizni eshitgan odam shahzodaga borib aytsa yomon bo'ladi — u xoh hayvon bo'lsin, xoh odam bo'lsin, tizzasigacha toshga aylanadi.

- Toshga aylansam aylanarman, lekin shahzodaga bu riyokorlikni aytmasam bo'lmaydi! — debdi mirshikor qarg'alar eshitsin uchun ovozini ataydan ko'tarib.

- Qag'-qag', o'zingdan ko'r! — qag'illashib javob beribdi qarg'alar va uchib ketishibdi.

Qarg'alar ko'zdan yo'qolishi bilan tomga uchta kaptar kelib qo'nibdi va — vo ajabo, bu qanaqa mo'jiza bo'ldi! — ular ham o'zaro gaplashisha boshlabdi.

- Oh bechoralar, — debdi birinchi kaptar, — ko'prikdan omon-eson o'tib olishadi-yu, baribir ajaldan qutulib qolisholmaydi.

- To'g'ri, to'g'ri, — debdi uning gapini ma'qullab ikkinchi kaptar, — qirog otasi ularga sehrlangan izvosh yuboradi.

- Oh, kelin-kuyov shu izvoshga o'tirmasa bo'lardi! — debdi uchinchi kaptar. — Chunki o'tirishlari hamon dahshatli dovul ko'tariladi, ularni ot-aravalari bilan osmonga havolatadi-da, yerga tashlab yuboradi, ichidagi odamlarning suyaklaridan ham nom-nishon qolmaydi. Bordi-yu, kimda-kim bizning gaplarimizni eshitib olib birovga aytsa, beligacha toshga aylanadi.

- Aylansam aylanarman toshga, — baland ovozda gapiribdi mirshikor kaptarlar eshitsin uchun, — baribir aytaman.

Kaptarlar cho'chib osmonga ko'tarilibdi va allaqayoqqa uchib ketibdi. Endi tomda — mana bu mo'jizani ko'rib qo'ying! — uchta lochin o'tirib olib, gap sotishayotgannish.

- Ko'prik ham, izvosh ham ikkala yoshga ziyon yetkazmasligi mumkin, — o'zicha mulohaza qilarmish lochinlardan biri, — lekin u yog'iga qanday jon saqlab qolishadi, to'g'risi, bilmayman.

- Men ham bilmayman, — debdi ikkinchi lochin. — Shaharda gap yuribdiki, qiro o'g'li bilan keliniga kiydirgani oltin va kumushdan tikilgan chopon yuborarmish, deb.

- Qani endi iloji bo'lsa-yu, shu gapni yoshlarning qulog'iga yetkazsang, — xo'rsinib debdi uchinchi lochin, — ular o'sha to'nni kiyishlari hamon qop-qora ko'mirga aylanib qolishadi... Bizku ularga borib aytolmaymiz, bordi-yu, kimdir borib aytsa ham tosh ustunga aylanadi.

- Nima bo'lsam bo'larman, ammo olivjanob Yankoning halok bo'lishiga yo'l qo'ymayman! — deb baland ovozda qichqiribdi mirshikor.

Ertalab ular yo'lga tushishibdi. Mirshikor shahzodani bir chetga chaqirib unga shunday debdi:

- Kechasi tush ko'rdim, qadron shahzodam, ishontirib aytamanki, agar gapimga qulog solmasangiz, hammamiz halok bo'lamiz. To uyga yetib olguncha mening bitta ham so'zimni ikkita qilmaslikka va'da bering.

Yanko qah-qah urib kulibdi, xotini ham kulibdi.

- Obbo sodda-bayov do'stim-ey, odamning tushiga nimalar kirmaydi, hammasiga ham ishonaverar ekan-da.

- Balki to'g'ri aytarsiz, lekin uyga yetib olgunimizcha mening aytganidan chiqmaysiz!

Er-xotin yana kulishibdi, lekin mirshikor yon bermabdi. Oxiri Yanko hamma aytganlaringni bekam-u ko'st bajaraman, deb so'z beribdi.

Ular karvonsaroydan chiqib, ko'p o'tmay oltin ko'prikka yetishibdi. Mirshikor debdi:

- Izvoshni bu qirg'oqda qoldiramiz!

Nega qoldirar ekanmiz? — so'rabdi Yanko.

- Sababi, uning juda shalog'i chiqib ketdi, ko'prikdan o'tolmaydi. Shahzoda bo'la turib malikani shunaqa shaloq aravada olib yurishingiz uyat.

Ular izvoshdan tushishibdi, u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechiribdi, Yanko hatto tagiga kirib, o'qlarini tekshirib ko'ribdi, orqasidan xotini ham kirib ko'ribdi, biroq hech qanday kamchilik topisholmabdi, tovba, jin ham urgani yo'q-ku, izvoshdayin izvosh, bundan ortig'i qanaqa bo'larkin? G'ildiragining yog'lari bo'lsa yiltillab turibdi, sababi u sof suyuq oltindan olingan ekan-da.

- Qiziq, — debdi shahzoda, — izvoshda zarracha kamchilik ko'rmayapman. Biroq senga va'da berdimmi, qulog solishga majburman.

Ular izvoshni qirg'oqda qoldirishib, bitta-bitta yurib ko'prikdan o'tib olishibdi, mirshikor esa otni minib, daryodan suzib o'tibdi. Shaharga tushishibdi-da, u yerdan yangi izvosh sotib olib, yo'lda davom etishibdi.

Ular shahardan chiqishlari bilan ro'paralaridan zarhallangan izvoshda gofmeyster peshvoz chiqibdi va shahzodaga qarab shunday debdi:

- Mana bu sizga, janobi oliylari, otangiz berib yubordilar, mansab, martabasiga munosib bo'lsin dedilar. — U shahzoda bilan malikani qiro yuborgan zarhal izvoshga o'tib o'tirishlarini iltimos qilibdi.

Yangi izvosh sof oltindan yasalgan ekan, hatto g‘ildiragining moyi ham oltindan ekan. Biroq mirshikor uning ichi-yu sirtini, osti-yu ustini qarab chiqish lozim, debdi. Hamma tomonini tekshirib bo‘lib, go‘yo kamchilik topganday, shahzodaga qarab debdi:

- Oliy hazratlari, bu izvoshga o‘tirmang: ko‘rinishi binoyidekkina ekan-u, ammo yo‘lga yaramaydi.

Shunday debdi-da, baribir ular buning gapiga kirmasliklarini bilib, qimmatbaho izvoshni chopib, mayda-mayda qilib tashlabdi.

Shahzoda Yanko, attang deb boshini chayqab qolaveribdi, boshqa hech narsa qilolmabdi: axir uygaga yetguncha so‘zingdan chiqmayman deb mirshikorga va’da berib qo‘ygan edi-da.

Ular yana o‘zlarining yaqinda sotib olgan yap-yangi izvoshlariga o‘tirishibdi-da, yo‘lga tushishibdi, ko‘p o‘tmay qiroq yashaydigan poytaxt shahar ko‘zga chalinibdi. U yerda mehmonlarni chopar kutib turgan ekan, uning bir qo‘lida shahzodaga atalgan, ikkinchi qo‘lida malikaga atalgan shohona libos bor ekan. Unisi ham, bunisi ham zar va kumushdan tikilgan bo‘lib, jimjimasi ko‘zni qamashtirar kan.

Shahzoda otasi yuborgan sovg‘alarni ko‘rib suyunib ketibdi, xotini bo‘lsa butunlay o‘zini qo‘ygani joy topolmay qolibdi. Qimmatbaho liboslarni olish uchun qo‘llarini cho‘zishgan ham ekanki, mirshikor yugurib kelib, chopardning qo‘lidan liboslarni tortib olibdi va hammaning ko‘zi oldida ularni laxtak-laxtak qilib yirtib tashlabdi.

Shahzodaning toqati toq bo‘libdi.

- Nega bunday qilasan? — jahl bilan so‘rabdi u mirshikordan.  
- Bunaqa liboslarni kiyib gerdayish xizmatkor-yugurdaklarga munosib, sizdek aslzodaga emas!

Shahzoda azbaroyi g‘azabdan o‘zini tutolmay, qichqiribdi:

- Og‘zingga qarab gapir!!

Yosh xotin piq-piq yig‘lay boshlabdi, axir shahzoda turib xizmatkor buyruq bersa alam qilmaydi- mi!

Keksa qiroq esa quloqsizligi uchun kechirmaganini o‘g‘li Yankoga ma’lum qilolmaganidan jig‘ibiyroni chiqmoqda ekan. Biroq Yanko xotini bilan saroyga kirib kelganida o‘zini sevingandan terisiga sig‘mayotganday qilib ko‘rsatibdi. Aslida esa ular uning hiylalaridan, tuzoqlaridan qanday qilib jon saqlab qolganlarini bilish uchun toqati toq bo‘lmoqda ekan.

Men senga aytsam, mehribon o‘g‘lim, — debdi qiroq, — otangning sovg‘alarini ko‘zingga surtib qabul qilarsan deb o‘ylovdim. Ha, endi ko‘nglingga yoqmagandir-da. Men esa hammasidan a’lo bo‘lishini istagan edim.

- Jahlingiz chiqmasin, otajon, — debdi shah-zoda, — menga yuborgan sovg‘alaringiz juda yoqdi, lekin men to uygaga kirib borguncha uning aytganlarini bajaraman deb so‘z bergandim, u tentakka na izvosh, na zardo‘zi liboslar yoqdi. Agar gapimga kirmasalaring, hammamiz nobud bo‘lamiz dedi u.

«Hah mirshikor, shoshmay tur hali, — debdi o‘zicha qiroq, — buning uchun yaxshilab ta’ziringni yeysan!» Busiz ham u mirshikor uning gapiga kirmay, xotin izlashgani shahzoda bilan ketgani uchun unga nisbatan yuragida kek saqlab yurar ekan.

Qiroq qozilarni to‘plabdi, ular mirshikorni qilgan gunohlari uchun o‘limga hukm etishibdi. Ertasiga tong chog‘ida saroy hovlisining o‘rtasidan dor tiklanibdi, mirshikorni olib chiqib, dor tagiga keltirishibdi. Juda katta, sening anovi choyshabingday keladigan qog‘ozni, ya’ni hukmi oliyni e’lon qilishibdi va gunohkorning barcha qora qilmishlarini bir-bir sanab o‘tishibdi.

- Nima ham derdim, — debdi bunga javoban mirshikor, — yorug‘ dunyodan rizq-nasibamiz tugagan ekan. Ammo shu narsadan xotirjamanki, ollyjanob shahzodamizning hayotini saqlab qola oldim.

Shunday deb u qarg‘alardan eshitganlarini so‘zlab beribdi.

Gapini tugatar-tugatmas tizzasigacha toshga aylanibdi.

So‘ng kaptarlar aytgan gaplarni so‘zlab beribdi, o‘sha zahoti beligacha toshga aylanibdi. Lochinlarning suhbatini aytib bergen ekan, butunlay tosh haykalga aylanibdi-qo‘yibdi.

Shahzoda Yanko qayg‘urganidan boshini qaysi toshga urishini bilmabdi. Sadoqatli mirshikorning uning hayotini saqlab qolish uchun o‘z hayotini qurbon qilganligini o‘ylagani sayin ich-ichidan kuyib ketaveribdi. U o‘ziga o‘zi uydan chiqib ketaman va to haykalni tiriltirish yo‘lini topmagunimcha olam kezib yuraveraman, deb so‘z beribdi.

Bir kuni kechqurun xotiniga shu muddaosini anglatibdi:

- Ortiq uyda qumtosh bo‘lib o‘tirolmayman, bizni deb sadoqatli mirshikor jonini qurbon qildi.

Xotini yig‘labdi, hech qayoqqa ketmaysiz, noma’lum yoqlarda nima qilasiz, debdi. Yanko esa o‘z ahdida mahkam turib olibdi. Bu gaplar shu yerdagi kampirning (u shahzodaga enagalik qilgan ekan) ham qulog‘iga chalinib, uni qaytarmoqchi bo‘libdi:

- Hech qayoqqa ketmaysan, xotininingni yolg‘iz qoldirma, sening joying shu yerda!

Biroq shahzoda hech kimning gapiga qulq solmabdi.

- Odam dunyoga bir marta keladi, bir boshga bir o‘lim, — deb javob beribdi xotini bilan kampirning gaplariga. — Men o‘z sadoqatli mirshikorimning haykal bo‘lib qolib ketishiga yo‘l qo‘ymayman.

- Aftidan sen bu ishga qattiq bel bog‘laganga o‘xshaysan, o‘g‘lim, — debdi sobiq enaga. — Unday bo‘lsa, Baxtomadni qidirib top. Agar u senga yordam bermasa, unda qo‘lingni yuvib, qo‘ltig‘ingga surtaver.

Yanko xotini bilan xayrlashibdi, enaga va xotini yig‘lab qolishibdi. Yanko hayt debdiyu, qaydasan Baxtomad deya yo‘lga tushibdi. Yetti kecha-yu yetti kunduz hordiqsiz yo‘l bosibdi, juda ko‘p odamlar bilan uchrashibdi, birlari bilan salomlashibdi, birlari bilan xayrlashibdi, biroq bironta tirik zot Baxtomadning qayerda turishini aytolmabdi.

Bir kuni kechqurun u bir tegirmonga duch kelibdi, tegirmonning ichkarisiga kiribdi-da, tegirmonchidan tunashga joy so‘rabdi.

- Mehmon — atoyi xudo, kir, ey musofir, — debdi tegirmonchi, — boshpana ham topiladi, rizq ham.

Kechlik ovqat yeya turib, Yanko o‘zining kim ekanini, nima maqsadda dunyo kezib yurganini tegirmonchiga so‘zlab beribdi.

- Eh, shahzoda, — debdi unga tegirmonchi, — agar Baxtomadni topsang, undan men haqimda so‘ra: mening tegirmonimda yetti tosh aylanadi, movut dastgohim ham bor, yem chiqaradigan uskunam ham bor, shunga qaramay topganim doim uchma-uch yetadi. Buning sababi nimada?

Yanko, agar Baxtomadni topsam, uning qayg‘usi haqida albatta so‘rayman, deb va‘da beribdi.

Ertalab u yana yo‘lga tushibdi va kechga yaqin bir qishloqqa yetib kelibdi. El uyquga ketgan ekan, faqat bir kichkinagina uyda chiroq yonib turar ekan. Yanko borib o‘sha uy eshigini taqillatibdi va ichkariga qadam qo‘yibdi. Qarasa, pechka atrofida uchta qiz o‘tirar va urib ip yigirar ekan. Qizlar ham unga bajonidil tunagani ruxsat berishibdi, uning kimni izlab yurganini eshitishib, agar Baxtomadni qidirib topsangiz, undan so‘rab ko‘ring-chi, nega shuncha ip yigirsak ham bizni hech kim olmaydi? — deyishibdi.

Yanko ularning iltimosini bajarishga so‘z beribdi — avval Baxtomadning o‘zini qidirib topsin-chi!

Ertalab u yana yo‘lga tushibdi, tog‘lar oshibdi, vodiyarlarni kezibdi, qalin o‘rmonga duch kelibdi, chakalakzorda uch kecha-yu uch kunduz adashib yuribdi, o‘rmon xiyol siyraklasha boshlagandan keyin esa birdan oyog‘i tagidan bir jilg‘a ko‘rinibdi. Jilg‘a keng yoyilib oqa turib so‘rabdi:

- Bizning yurtlarga seni qanday shamol uchirib keldi? Bu yerlarga yorug‘ dunyo bino bo‘lgandan buyon odam bolasining qadami yetmagan, qush zoti adashib ham uchib o‘tmagan edi-ku?

Yanko jilg‘aga hamma gapni so‘zlab beribdi.

- Baxtomadni ko‘rsang, shahzoda, — debdi jilg‘a, — undan so‘rachi: suvim tip-tiniq, zilolday bo‘lsa ham nega menda na baliq, na qisqichbaqa bor?

Bo‘pti, so‘rayman, — debdi Yanko, — faqat meni qo‘yib yubor, naryoqqa o‘tib olay.

Jilg‘a kamalakday egilib, yo‘l beribdi va Yanko oyog‘iga bir tomchi ho‘l tekizmay o‘tib olibdi.

- Qayg‘urma, — debdi Yanko xayrlashar ekan, — men faqat Baxtomadni topsam bo‘lgani, sening darding haqida albatta aytaman.

Yanko quyuq o‘rmondan bir amallab chiqib olibdi-da, gullar to‘slib yotgan chiroyli o‘tloqzordan yurib ketibdi. Ketaveribdi, ketaveribdi, o‘tloqzorning esa na oxiri, na chekkasi ko‘rinarmish. Kechga yaqin bir uychaga duch kelibdi. Tunagani joy so‘rash uchun ichkariga qadam qo‘yibdi. Uychada bir kampir o‘tirgan ekan, bechora shunchalik qartaygan ekanki, burni yerga tegay-tegay der ekan. Yanko odob bilan salom berib so‘rashibdi:

- Assalomalaykum, kampir ona!

- Vaalaykum assalom, yaxshi bolam! Nega kelding, bizning yurtlarda nima qilib yuribsan?

Yanko Baxtomadni qidirib yurganini aytibdi.

- Ishingning o‘ngidan kelganini qara, o‘g‘lim, men uning onasi bo‘lamан.

Yanko shunaqangi suyunib ketibdiki, ta’riflashga til ojiz. Darhol kampirga Baxtomadning nega kerak bo‘lib qolganini aytibdi.

- Shunaqa de, o‘g‘lim, — debdi unga ming yilning yuzini ko‘rgan kampir. — Attang, qizim hozir uyda yo‘qligini qara, u uzumzorga ketuvdi, o‘sha yoqda yotib qoladi. Sen bunday qil bo‘lmasa: ertalab uning oldiga jo‘na, o‘zing bilan so‘qani olib ol, bir og‘iz bir narsa demay yonida turib ishlayver. Faqat esingda bo‘lsin: unga churq etib og‘iz ochmaysan, so‘rasa ham og‘zingga tolqon solib turaver. Tushda men o‘zim ovqat olib boraman. U ovqatlangani o‘tiradi, sen ham yoniga o‘tirib, birga ovqatlanasan. Ovqatlanib bo‘lgandan keyin qizim: «Qani, dardingni ayt», deydi. Ana shundan keyin hamma gapni aytib berasan, u senga yordam qiladi.

Yaxshi maslahati uchun Yanko kampirga rahmatlar aytibdi va ertalab turib uzumzorga ketibdi. Kampir qanday aytgan bo‘lsa, shunday qilibdi. Baxtomadning oldiga boribdi, u bilan yonma-yon turib olibdi, og‘iz ochib bir narsa demabdi, tushgacha g‘ayrat bilan toklarning tagini yumshatibdi.

Tushda kampir kelibdi, ular tushlik qilgani o‘tirishibdi. Ovqatlanib bo‘lishgandan keyin Baxtomad debdi:

- Bilasanmi, men juda ko‘p odamlarni ko‘rganman, ammo senga o‘xshaganini endi ko‘rayapman. Tushgacha ham miq etib og‘iz ochmading, yo gungmisan nima balo?

- Yo‘q, men gung emasman, — deb tilga kiribdi Yanko, — faqat dardim shunchalik zo‘rki, aytsam tilim kuyadi, aytmasam dilim.

Shundan so‘ng dardi nima ekanini batafsil so‘zlab beribdi.

- Qayg‘urma, — debdi unga Baxtomad, — men senga yordam qilaman, chunki mirshikoring ham, sen ham yordam berishga munosib xizmat qilgansizlar. Xotirjam uyingga qayt. Bu orada xotining o‘g‘il tug‘adi, bir qadah olgin-da, o‘g‘lingning chinchalog‘idan uch tomchi qonni shu qadahga tomiz, shu qonni haykalning avval tizzasiga, so‘ng beliga, undan so‘ng peshonasiga surt. Mirshikoring o‘sha zahoti asliga qaytadi.

- Bu marhamating uchun xudoym seni abadiy yorlaqagay! — qichqirib yuboribdi Yanko va sevinchi ichiga sig‘may uy tomon uchibdi.

Biroq shu zahoti Baxtomadga berishi lozim bo‘lgan uch savolni eslabdi.

- Baxtomad, xafa bo‘lmasang, men senga yana uchta savol bermoqchi edim.

- So‘rayver yigit, qo‘limdan kelsa, javob beraman.

- Bu yerdan uncha uzoq bo‘lмаган bir joyda bir jilg‘a oqarkan, nega unda na baliq bor, na qisqichbaqa?

- Sababi, hali hech bir odam bolasi unga cho‘kmagan, — javob qaytaribdi Baxtomad. Faqat sen undan o‘tib olib, eng baland daraxt tepasiga chiqib olmaguningcha bu to‘g‘rida og‘iz ocha ko‘rma, yo‘qsa halok bo‘lasan.

Yana falon qishloqda turadigan uch qiz haqida so‘ramoqchi edim. Ular juda ham tirishqoq, g‘ayratli qizlar ekan, lekin hech kim olmayotgan ekan. Buning sababi nimada?

- Sababi shuki, Quyoshning yuziga axlat supurishadi.

- Gapingni tushunolmadim... Ya’ni? — qayta so‘rabdi Yanko.

- Ya’ni, kech turishadi, ular hovli supurishga kirishishganda Quyosh yoyilib ketgan bo‘ladi.

- So‘nggi savolim, Baxtomad. Falon qishloqda bir tegirmончи yasharkan, tegirmonida yetti tosh, bundan tashqari movut dastgohi, yemxonasi bor ekan, shunga qaramay topgani uchma-uch yetar ekan. Buning siri nimada?

- Siri shundaki, u o‘lguday xasis, ziqna odam, tilanchiga bir burda qotgan nonni ravo ko‘rmaydi. Seni uyiga qo‘yanining sababi shuki, qaraydi: boysan, sendan biron-bir foyda undirib qolish payida bo‘lgan.

Yanko Baxtomadga yana rahmatlar aytib, ona-bola bilan xayrlashibdi-da, iziga qaytibdi.

Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib u jilg‘aga yetib kelibdi. Jilg‘a uni ko‘rib tikka bo‘libdi.

- Xo‘sh, Baxtomaddan men haqimda so‘radingmi?

- Meni narigi qirg‘oqqa qo‘yib yubor, keyin aytaman.

Jilg‘a kamalakday egilibdi, Yanko uning tagidan lip etib o‘tibdi-da, ko‘z ochib-yumguncha eng baland daraxt tepasiga tirmashib chiqib olibdi. Eng uchiga yetganidan keyin o‘sha yoqdan qichqirib, Baxtomadning javobini aytibdi.

Buni eshitishi bilan jilg‘a toshib, quturibdi, suv ko‘tarilib kelaveribdi, kelaveribdi, Yanko chiqqan daraxtning qoq beligacha ko‘tarilib, to‘lqinlar zarb bilan kelib urilaveribdi. Jilg‘aning bor urinishi, bor quturishi behuda ketibdi, shahzodaning pochasagina biroz ho‘l bo‘libdi, xolos, shovillab tag‘in ilgarigi holatiga qaytibdi.

Yanko daraxtdan tushib, yana yo‘lida davom etibdi. Yo‘lda uchala opa-singilnikiga ham qo‘nib o‘tibdi, ularga Baxtomadning javobini yetkazibdi.

Qizlar shundan keyin Quyoshning yuziga axlat supurmay qo‘yishibdi, ko‘p o‘tmay uchalalari ham baxtli bo‘lib ketishibdi.

Tegirmonchi ham Baxtomadning pandlarini qulog‘iga quyib olibdi, g‘arib-g‘urabolarga qayishadigan bo‘libdi, boyliklarining bir ulushini xayr- sadaqa qila boshlagan ekan, ishlari yurishib, topganiga baraka kiribdi.

Jilg‘a ham uzoq kutmabdi, ko‘p o‘tmay uning suvida baliq va qisqichbaqalar g‘ujg‘on o‘ynay boshlashibdi, gap shundaki, bir mashhur ot o‘g‘risi o‘g‘irlagan oti bilan o‘tib ketmoqchi bo‘lganda, jilg‘a toshib, uni g‘arq qilib yuborgan ekan.

Endi sadoqatli mirshikorni tiriltirish qolibdi, xolos. Shahzoda uyga oshiqar va xudodan faqat bir narsani iltijo qilarkan: ishqilib uyiga kelguncha xotini o‘g‘il tug‘ib qo‘ygan bo‘lsin-da.

Bir yoqda u uyga kirib kelibdi, bir yoqda xotini ko‘zi yorib, o‘g‘il tug‘ibdi. Chaqaloq shunaqangi jajji, shirin ekanki, sochlari oltin! Yankoning o‘g‘liga ichi achibdi, biroq iloji qancha—pichoqning uchini chaqaloqning sinchalog‘iga sanchibdi, uch tomchi qonni sizdirib olibdi, o‘qday otilib hovliga chiqibdi, qonni haykalning tizzasiga, beliga va peshonasiga surtibdi — sadoqatli mirshikor uyqudan uyg‘onganday birdan tirilibdi!

Keksa qirol bu paytda deraza oldida trubka chekib o‘tirar ekan, qarasa, mirshikor tirilgan, yuragi tars yorilayozibdi, trubkani og‘zidan olib itqitibdi, trubka sinib, chil-chil bo‘libdi, razil chol shunchalik qattiq qo‘rqqan ekanki, yuz-taban yerga yiqilganicha yorug‘ dunyo bilan vidolashishni ham nasiya qilib, bobolari huzuriga jo‘nab qolibdi.

Nachora, taqdirga shunday yozilgan ekan-da, odamlar gapni maydalashtirib o‘tirmay qirolni shohona dabdaba bilan dafn etishibdi, chunki uning o‘rniga taxtni kim egallashi oldindan ma’lum emasmi! Qirolning o‘g‘lini xalq yaxshi ko‘rarkan, chunki bunday odamni hozirgi paytda kunduz kuni chiroq yoqib topib bo‘lmas ekan. Aytishlaricha, o‘lib ketmagan bo‘lsa hozir ham yurganmish.

**“Oltin shahzoda” kitobidan**